



Toshkent davlat
sharqshunoslik universiteti

XXI ASR: FAN VA TA'LIM MASALALARI

ilmiy elektron jurnali

ISSN: 2181-9874



EDUCATION

2026

ZIYORAT TURIZMI RIVOJLANISHIDA TIZIMLI YONDASHUV XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI

Arifjonov Gulomjon To‘rajonovich

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Turizm kafedrası katta o‘qituvchisi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Tel: +998 94 628 94 77

Annotatsiya. Mazkur maqolada ziyorat turizmi rivojlanishida tizimli yondashuvning nazariy asoslari, xususiyatlari va tamoyillari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Jahon iqtisodiyotida tizimlar nazariyasining shakllanishi doirasida “tizim” tushunchasining turli talqinlari o‘rganilib, uning yaxlitlik, o‘zaro bog‘liqlik, barqarorlik va maqsadga yo‘naltirilganlik kabi asosiy belgilari umumlashtiriladi. Tadqiqot natijasida tizimning additivlik, emergentlik va kommutativlik qonuniyatlari ziyorat turizmi bozori faoliyatida namoyon bo‘lishi asoslab beriladi. Ziyorat turizmi bozori ochiq va murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida ko‘rib chiqilib, uning tashqi muhit bilan o‘zaro aloqadorligi, elementlar o‘rtasidagi integratsiya va yagona tizim sifatida shakllanishi yoritiladi. Shuningdek, ziyorat turizmi tizimining tarkibiy tuzilmasi va unda faoliyat yurituvchi subyektlar birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi segmentlar asosida tasniflanadi. Maqolada ziyorat turizmi bozorining geografik, ijtimoiy-iqtisodiy va infratuzilmaviy omillar bilan belgilanadigan o‘ziga xos xususiyatlari hamda uning samarali faoliyat yuritishini ta‘minlovchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning nazariy talqini ochib beriladi. Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekistonda ziyorat turizmi bozori subyektlari faoliyati tanlanib, tizimli yondashuv asosida mazkur yo‘nalishni rivojlantirish zarurati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: ziyorat turizmi, tizimli yondashuv, turizm bozori tizimi, emergentlik xususiyati, additivlik qonuniyati, kommutativlik qonuniyati, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, turizm infratuzilmasi, turizm bozori subyektlari, ochiq iqtisodiy tizim, barqaror rivojlanish.

FEATURES AND PRINCIPLES OF A SYSTEMIC APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF PILGRIMAGE TOURISM

Arifjonov Gulomjon Torajonovich

Senior Lecturer, Department of Tourism

Tashkent State University of Oriental Studies

Independent Researcher,

Tashkent State University of Economics

Tel: +998 94 628 94 77

Abstract. This article provides a scientific analysis of the theoretical foundations, characteristics, and principles of a systematic approach to the

development of pilgrimage tourism. Within the framework of the formation of systems theory in the global economy, various interpretations of the concept of ‘system’ are examined, and its key characteristics – integrity, interdependence, stability, and purposefulness – are summarised. The study establishes that the principles of additivity, emergent behaviour, and commutativity are manifested in the operation of the pilgrimage tourism market. The pilgrimage tourism market is considered an open and complex socio-economic system, highlighting its interrelationship with the external environment, the integration between its elements, and its formation as a unified system. Furthermore, the structural composition of the pilgrimage tourism system and the entities operating within it are classified into primary, secondary, and tertiary segments. The article reveals the unique characteristics of the pilgrimage tourism market, determined by geographical, socio-economic, and infrastructural factors, as well as the theoretical interpretation of the organisational-economic mechanism that ensures its effective operation. The activities of the actors in the pilgrimage tourism market in Uzbekistan are selected as the object of the study, and the necessity of developing this sector is substantiated on the basis of a systemic approach.

Keywords: pilgrimage tourism, systemic approach, tourism market system, emergent property, law of additivity, law of commutativity, organisational-economic mechanism, tourism infrastructure, tourism market participants, open economic system, sustainable development.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida tizimlar nazariyasining rivojlanishi davrida “tizim” tushunchasi har xil ilmiy adabiyotlarda fikran yaqin bo‘lgan ta’riflar ilgari surilgan. Jumladan, “bo‘laklardan iborat bir butunlik; bir-biri bilan aloqada va bog‘liqlikda bo‘lgan elementlarning birlashuvi natijasidagi yaxlitlik va birlik”, “integral xususiyatlar va qonuniyatlarga ega barqaror yaxlitlik va bir butunlikni hosil qiluvchi o‘zaro bog‘langan elementlar to‘plami”, “o‘zaro ta’siri va o‘zaro munosabatlari diqqat markazidagi foydali natijani olish maqsadida o‘zaro ko‘maklashish” xarakterini oluvchi, tanlab jalb qilingan komponentlar majmui”, “o‘zaro bog‘liqlikda va birlikdagi elementlar majmui”, “bir-birlari va o‘zlarining atributlari bilan o‘zaro bog‘liqlikdagi elementlar to‘plami”, “elementlarning shunday tashkillashtirilgan majmuiki, biror bir elementning o‘zgarishi, chiqib ketishi yoki yangi elementning kiritilishi boshqa elementlarda qonuniy tarzda aks etadi”, “tizimli xususiyatlarga ega obyektlar to‘plami, hamda obyektlar va ularning xususiyatlari o‘rtasidagi aloqalar to‘plami” kabi ta’riflarni namoyon qiladi.

Jahon iqtisodiyotida tizimlar nazariyasining shakllanishi va rivojlanishi davrida “tizim” tushunchasining mohiyatini belgilab beruvchi ta’riflarning tahlili natijasida tizim va unga xos quyidagi tavsiflarini belgiladik:

- tizim o‘ziga xos iqtisodiy, tashkiliy, ishlab chiqarish, ijtimoiy tuzilmaviy tarkibdir

- tizim o‘ziga xos elementlar o‘rtasidagi tizimlilikni yuzaga keltiruvchi metodlar, vositalar va algoritmlardan iborat bo‘ladi;

- tizim tegishli omillar ta’siri natijasida yuzaga keladi va takomillashadi;

- tizim ma’lum bir yaxlitlikdagi faoliyati natijasida aniq maqsadlarni amalga oshiruvchi elementlar yig‘indisidan iborat;

Olib borilgan tahlillarga tayangan holda shuni ta’kidlaymizki, aniq bir butunlikga ega elementlar va aniq umumiy xususiyatlarga ega elementlarning hamjihatligi tizim tushunchasining mohiyatini ochib beruvchi hamda uning rivojlanish holatlarini aks ettiruvchi xususiyatlardan iborat bo‘ladi. O‘z navbatida ushbu xususiyatlar tizimlar nazariyasi va tizimli tahlilga mos ravishda “adsitivlik qonuniyati” va “emerjentlik qonuniyati” sifatida xarakterlaydi.

Shu bilan bir qatorda, tizimlar nazariyasiga asosan tizim ishlab turishining qonuniyatlaridan navbatdagisi “kommutativlik” qonuniyat xisoblanadi. “kommutativlik” qonuniyatiga asosan «u (tizim) muhit bilan o‘ziga xos birlikni yuzaga keltiradi..., hamda muhit bilan turli xil kommunikasiyalar orkali bog‘langan».

Additivlik (lot. additio – qo‘shmoq) qonuniyati go‘yoki mustaqil elementlarga parchalangan tizimda namoyon bo‘luvchi xususiyatlarni yuzaga keltiradi. Natijada tizimning xususiyati uni tashkil etuvchi elementlari yig‘indisidan shakllanadi.

Bilamizki, tizimli yondashuv o‘rganilayotgan obyektning uyg‘unlikdagi elementlar yig‘indisi va ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar birligi sifatida, ya’ni uni tizim sifatida ko‘rib chiqishga asoslangan tadqiqot metodologiyasining yo‘nalishi hisoblanadi. Natijada yondashuvlar asosida ziyorat turizm bozorini o‘rganish, uning tizimga xos xususiyatlarini tadqiq etish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Ziyorat turizmi bozorini tizim sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlariga e’tibor qaratamiz. Nazariy qonuniyatga ko‘ra, tashqi muhitning o‘zgarishi tizimning moslashishiga, hamda butun tizim faoliyatining va rentabellikning o‘zgarishiga olib keladi.

- ziyorat turizmi bozori tizimiga xos bo‘lgan “emerjentlik” xususiyati boshqa tizimlardan farq qilishini ko‘rsatadi. “Emerjentlik” xususiyati tizimning elementlariga xos bo‘lmagan va faqatgina ushbu elementlarning yagona tizimda yaxlitlikdagi harakatlarida tavsif aks etadi. Sayyoxlik bozorining takomillashuvi mazkur bozorda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ishtirokchilari hisoblangan

iqtisodiy tarmoq korxonalarining iqtisodiy holatiga ta’sirini o’tkazadi va natijada yaxlitlik xususiyatini hosil qiladi.

- tashqi muhit bilan tizim orasida chegaralarning o’zgarishi hamda o’zaro elementlar almashinuviga sabab bo’luvchi ochiq tizimga mos bo’lgan “kommutativlik” xususiyati. Natijada tizimning takomillashuviga olib keladi.

Iqtisodiy global rivojlanish jarayoni, ilmiy-texnologik rivojlanish, transport logistikasining o’sib borishi ziyorat turizmi bozorini rivojlantirib uni tizimga mos “kommutativlik” xususiyatini belgilaydi. Kompleks tavsifiga ega turistik mahsulotni iste’molchiga yetkazib berishga ixtisoslashgan ziyorat turizmi bozori yaxlit tizim sifatida turli korxona va tashkilotlarning uzviy yaxlitlikdagi majmuadan iborat. Mazkur korxona va tashkilotlarni shartli ravishda segmentlarga ajratib o’rganish maqsadga muvofiq bo’ladi. Ziyorat turizmi bozorlarida xizmat ko’rsatuvchi sohalar sfatida quydagi segment guruxlarni ko’rib chiqamiz.

- ziyorat turizmi bozorlarida birlamchi turistik tashkilotlar guruhiga sayyohlik mahsulotni yaratish, shakllantirish va realizasiya qilish bilan shug’ullanuvchi korxonalardan iborat bo’ladi.

- ziyorat turizmi bozorlarida ikkilamchi guruhga mansub tashkilot va korxonalarning iqtisodiy faoliyati sayyohlarga xizmat ko’rsatishga ixtisoslashga bo’lganligiga qaramay, korxonalar tomonidan yaratilgan tovar va servis xizmatlardan sayyohlar va mahalliy aholi foydalanadi.

Ziyorat turizmi bozorlarida uchlamchi guruhga kiritilgan korxonalarning iqtisodiy faoliyati xalqaro va milliy bozorlarga, mahalliy aholiga servis xizmat ko’rsatadi. Mazkur xizmatlardan sayyoxlar xam unumli foydalanishlari mumkin bo’ladi. Taxlillarga asosan ziyorat turizmi bozorining o’ziga xosligi geografik ko’lami bilan tabiiy-geografik, moddiy-texnik, ijtimoiy-iqtisodiy, etnografik, siyosiy xususiyatlari bilan namoyo bo’ladi hamda rivojlanishini muvofiqlashtiruvchi boshqaruv tizimiga ega. Ilmiy ishning tegishli tahlillaridan kelib chiqib, tadqiqotimiz obyekti sifatida O’zbekistonda ziyorat turizmi bozori sub’ektlari faoliyati tanlandi.

Sayyohlik industriyasida ziyorat turizmi bozori murakkab va ochiq iqtisodiy tizimga xos bo’lgan tuzilmaviy xarakterga ega hisoblanadi. Mazkur tuzilmaviy tasnif quyidagilardan, ya’ni:

- xo’jalik yuritishning tashkiliy-huquqiy shakllari;
- bozor mexanizmi;
- ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimi;
- bozor subyektlarini rag’batlantirish va motivlashtirish tizimi;

- turizm bozori infratuzilmasi kabi elementlarning yaxlitligidan iborat. Shunday ekan ziyorat turizmi bozorini rivojlantirish mexanizmi mazkur bozor elementlarining yaxlitligini ta'minlab turadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur mexanizmga xos bo‘lgan xususiyatlarini aniqlash uchun, “mexanizm” tushunchasining nazariy talqiniga e’tibor qaratamiz. Dunyo olimlari tomonidan ilmiy tadqiqot obyekti sifatida iqtisodiy mexanizmlarning vujudga kelishi, ularning ishlashini rivojlantirishning nazariy-metodologik masalalari yigirmanchi asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilmiy tadqiqotlar orqali o‘rganilmoqda.

Bu borada bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, A.A.Kulman, I.L.Lomakina, V.P.Moskalenko, B.A.Rayzberg kabi mutaxassislaning “iqtisodiy mexanizm” mohiyatini ochib berishga bag‘ishlangan ilmiy xulosalari o‘rganilgan. Shu bilan bir qatorda, mustaqil davlatlar hamdo‘stligiga a‘zo mamlakatlarning olimlari, xususan, S.T.Axmedxanova, I.S.Markova hamda mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan B.Sh.Safarov, B.X.To‘rayev, M.E.Po‘latov, N.Tuxliyev, I.S.Tuxliyev, M.Talimova, Ye.V.Golisheva, N.E.Ibodullayev, M.M.Muxammedov, A.F.Saidov, D.X.Aslanova kabi olimlarimiz tomonidan turizm sohasining turli yo‘nalishlaridagi “tashkiliy-iqtisodiy mexanizm”ning mohiyatini nazariy hamda amaliy tahlil etish asosida, uni shakllantirish bo‘yicha ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan va tavsiya etilgan.

O‘rganilgan ilmiy adabiyotlarning nazariy tahlilidan tegishli xulosa qiladigan bo‘lsak, ularda iqtisodchi-olimlar “mexanizm” tushunchasining mohiyatini talqin etishda “tashkiliy mexanizm”, “xo‘jalik mexanizmi”, “iqtisodiy mexanizm” kabi tushunchapar qo‘llanilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ziyorat turizmi rivojlanishida tizimli yondashuvning nazariy va amaliy jihatlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, unda umumilmiy va maxsus tadqiqot usullarining uyg‘un qo‘llanilishi ta’minlandi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimlar nazariyasi, tizimli tahlil konsepsiyasi hamda turizm iqtisodiyoti sohasidagi zamonaviy ilmiy yondashuvlar tashkil etadi. Ushbu yondashuv ziyorat turizmi bozorini o‘zaro bog‘langan elementlar majmui sifatida o‘rganish, ularning funksional aloqalari va yagona tizim sifatida faoliyat yuritish mexanizmlarini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqotning empirik asosini O‘zbekistonda ziyorat turizmi bozori subyektlari faoliyatiga oid ochiq statistik ma’lumotlar, normativ-huquqiy

hujjatlar, ilmiy adabiyotlar hamda turizm sohasiga oid tahliliy materiallar tashkil etadi. Mazkur metodologik yondashuv ziyorat turizmini yaxlit tizim sifatida baholash, uning rivojlanish omillarini aniqlash va samarali boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Mexanizm” tushunchasi biror bir asbob, apparat, mashinani harakatga keltiruvchi ichki qurilmasi ma’nosini anglatadi. Iqtisodiy ta’limotda esa “mexanizm” tushunchasi ko‘chma ma’noda ishlatilib, uning mohiyati: “biror bir harakat sifatida namoyon bo‘luvchi hodisa va jarayonlarning ketma-ketligi, shuningdek, biror xil faoliyat tartibini aniqlovchi tuzilma, tizim” sifatida talqin etiladi. Bunda ba’zi bir iqtisodchi olimlarning fikriga ko‘ra, iqtisodiyotda “mexanizm” tushunchasining ishlatilishida: “ushbu faoliyatning aniq natijaga erishishini ta’minlash maqsadida muntazam boshqaruvni ta’minlovchi (iqtisodiy, xo‘jalik, tashkiliy) tizimning shakllanishi nazarda tutiladi”, shuningdek “mexanizm iqtisodiy hodisalarning aniq ketma-ketligi yoki majmuidir¹”.

Amaliyotdagi har qanday iqtisodiy tizim singari turizm industriyasi bozori va uning obyektlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar bozor iqtisodiyotining tartibga soluvchi mexanizmlari orqali tartibga tushirib boriladi. Ziyorat turizmi bozorini rivojlantirish mexanizmi sayyohlik mahsulotning iste’molchisi va sayyohlik mahsulot sotuvchisi bilan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni yaratish va tartibga solish funksiyasini o‘zaro yaxlitlikdagi tizimli bog‘liqligi va aloqalari orqali amalga oshiruvchi iqtisodiy, ijtimoiy va tashkiliy tuzilmasi va institusionallik bilan belgilanadigan usullar, o‘ziga elemeytlar, shakllar va vositalar uyg‘unligidir.

Ziyorat turizmi bozorini takomillashtirish mexanizmi tizimning turli bo‘g‘inlari: turagentlar va turistik mahsulot iste’molchilari, turoperatorlar va ularning kontragentlari, turoperatorlar va turagentlar, turizm bozori subyektlari va davlat o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish shakllari, usullari va vositalarida o‘z ifodasini aks ettirdi.

Mazkur mexanizm sayyohlik bozorning rivojlanishini ta’minlovchi iqtisodiy bozor muhitni yaratish orqali talab va taklif o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda ma’muriy-xuquqiy, tashkiliy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy-iqtisodiy, mexanizmlar yig‘indisidan iborat bo‘ladi.

¹ Кульман А. Экономические механизмы / Пер. с фр. А. Кульман; Под ред. Н.И. Хрустальной. М.: Прогресс- Универс, 1993.189 с.

Mazkur masala yuzasidan bizning fikrimizcha, turizm industriyasida ziyorat turizmini samarali rivojlantirish mexanizmi tarkibiy elementlari, usullari va vositalarini rivojlantirish orqaligina bugungi global iqtisodiy rivojlanish sharoitida kutilgan natija va samaraga erishish mumkin bo‘ladi. Natijada ziyorat turizmi bozorini rivojlantirish mexanizmi ana shunday innovasion yondashuvlar negizida tarkib topgan tuzilma asosida takomillashtirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.



1.2.1-rasm. Ziyorat turizmining tarkibiy tuzilmasi.

Ziyorat turizmining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari ochib berish hamda uni samarali rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish nuqtai nazaridan ushbu masalaning metodologik-uslubiy va amaliy jihatlarini tadqiq etish bugungi kunda dolzarbligi bilan ahamiyatlidir. Taxlillarimizga ko‘ra Respublikada ziyoratgohlar turli idoralar tasarrufida bo‘lganligi sababli bugungi kunga qadar tegishli yagona reestr tarkibiga kiritilmagan.

Mamlakatimiz qonunchiligida “ziyosatgoh”lar degan atama yo‘q. Ziyoratgohlar “diqqatga sazavor joylar” degan atama bilan belgilangan va ular muayyan huquqiy va idoraviy boshqaruv asoslariga ega emas. Natijada, respublikada ziyoratgohlarni yagona idoraviy boshqaruvi tizimi va reestri shakllantirilmay qolgan. Tegishli taxlillarimiz bo‘yicha soxani idoraviy boshqaruvi tizimi va reestrini shakllantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish orqali rivojlantirish maqsadga muvafiq bo‘ladi deb xisoblaymiz. Bu o‘z navbatida, yurtimizda ziyorat turizmi rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

Jahon iqtisodiyotining global o‘zgarishlari va raqobat muhitining keskinlashuvida milliy iqtisodiyotimiz tarkibi bo‘lgan ziyorat turizmi bozorini

samarali rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini quyidagi elementlar va metodlar orqali rivojlantirishni lozim deb bilamiz.

Ziyorat turizmida zaruriy qonunlar, qarorlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar yaratish va tashkiliy-institusional mexanizmlar yordamida ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaratish bilan soha izchil rivojlanadi. Bunday muhim strategik vazifalarni amalga oshirishda tegishli darajadagi davlat boshqaruv organlari ishtirok etib, sayyoxlik industriyasining tarmoqlararo kompleksini boshqarishda turli xil tashkiliy metod va metodologiyalardan foydalanishni taqazo etadi.

Bizning fikrimizcha, bunday metod va metodologiyalar negizida Respublikamizda ziyorat turizmin klasterlarni shakllantirishning zaruriy normativ-huquqiy asoslarini yaratish va uni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar marshrutini ishlab chiqish turizm bozori rivojlanishining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo‘ladi.

Tegishli mulohozalarga tayangan holda, ilmiy ishimizning mohiyati quyidagicha aks etadi: ziyorat turizmi bozori rivojlanishining asosiy dinamik va tarkibiy rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish, ochib berish bilan mazkur bozorga integratsiyalashgan marketing konsepsiyasini joriy etish orqali markazlashtirilgan turistik axborotlar tizimini shakllantirish. Shuningdek, ziyorat turizmi bozorida integratsiyalashgan aloqalarning innovasion uslubi sifatida ziyorat turistik klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish orqali xalqaro turizmida ziyorat turizmi bozorini samarati rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirilishi natijasida sayyohlik oqim hajmining ko‘payishi, turistik tashkilotlar daromadlarining oshishi, ziyorat turistik mahsulot raqobatbardoshligining o‘sishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga asos yaratadi.

1.2.1-jadval.

Ziyorat turizmining rivojlanish tamoyillari

№	Xususiyat/Tamoyil	Mazmuni	Ziyorat turizmidagi ahamiyati
1	Kompleks yondashuv	Ziyorat turizmini iqtisodiy, madaniy, diniy va ijtimoiy sohalar bilan uyg‘un holda rivojlantirish	Turizm mahsulotining barqarorligi va ko‘p qirraliligi ta’minlanadi
2	Integratsiya	Diniy obyektlar, transport, mehmonxona, xizmat ko‘rsatish sohaları va mahalliy jamoalar o‘rtasida hamkorlik	Ziyoratchilar uchun qulay muhit va uzluksiz xizmat ko‘rsatish jarayoni yaratiladi

3	Barqaror rivojlanish	Tabiiy va madaniy merosni asrab-avaylash, ekologik talablarga rioya qilish	Ziyorat obyektlarining uzoq muddatli saqlanishi va turizmning ekologik ta’siri kamayishiga xizmat qiladi
4	Marketing va brending	Milliy va xalqaro darajada ziyorat turizmini targ‘ib qilish	Milliy ziyorat markazlarining nufuzi oshadi, xorijiy ziyoratchilar soni ko‘payishiga olib keladi
5	Innovasiya va raqamli texnologiyalar	Elektron xizmatlar, onlayn bronlash, virtual ziyorat imkoniyatlaridan foydalanish	Ziyoratchilar uchun zamonaviy qulayliklar yaratiladi va yangi avlod ziyoratchilarini jalb qiladi
6	Institusional hamkorlik	Davlat, mahalliy hokimiyat, diniy tashkilotlar va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik	Turizm sohasida samarali boshqaruv va resurslardan oqilona foydalanish ta’minlanadi
7	Xavfsizlik va barqarorlik	Ziyoratchilarning jismoniy xavfsizligi, sog‘ligi va huquqiy himoyasi ta’minlanishi	Turistik oqim barqarorligi, ishonch va qoniqish darajasi oshadi
8	Ijtimoiy samaradorlik	Ziyorat turizmini mahalliy aholi manfaatlarini bilan uyg‘unlashtirish	Yangi ish o‘rinlari yaratiladi, aholi daromadi oshadi va ijtimoiy barqarorlik ta’minlanadi
9	Ilmiy-tadqiqot va tahlil asosida rivojlanish	Turizm siyosatini ishlab chiqishda statistika, tadqiqot va ilmiy tavsiyalarga tayanish	Tizimli qarorlar qabul qilinadi va rivojlanish yo‘nalishlari ilmiy asoslanadi
10	Xalqaro hamkorlik	Xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanish, xalqaro tashkilotlar bilan ishlash	Milliy ziyorat turizmini global bozorga integratsiya qilish imkoniyatini yaratadi

Ziyorat turizmi turizmning eng qadimiy va barqaror yo‘nalishlaridan biri sifatida insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida diniy, ma’naviy va madaniy ehtiyojlarni qondirishning muhim vositasi bo‘lib kelgan. Unda insonning ruhiy oromu ma’naviy qoniqishi, muqaddas joylarga intilishi va madaniy meros bilan bog‘liq qadriyatlarni asrab-avaylashi uyg‘unlashadi. Shu sababli ziyorat turizmini rivojlantirish masalasi faqat iqtisodiy jihatdan emas, balki ijtimoiy, madaniy, ma’naviy va siyosiy jihatlar bilan ham bog‘liq murakkab jarayon sifatida qaraladi. Bu jarayonni samarali yo‘lga qo‘yish uchun eng muhim nazariy-metodologik asos – tizimli yondashuv hisoblanadi. Tizimli yondashuv

nazariyasi har qanday jarayon yoki sohani faqat alohida elementlar yig‘indisi sifatida emas, balki ularning o‘zaro bog‘liqligi va ta’siri natijasida yaxlit tizim sifatida izohlaydi. Demak, ziyorat turizmining samarali rivojlanishi ham diniy obyektlar, infratuzilma, xizmat ko‘rsatish sohasi, davlat boshqaruvi, mahalliy aholi ishtirokini qamrab olgan bir butun tizim sifatida qaralishi zarur. Agar ushbu tizimdagi elementlar uyg‘unlikda faoliyat ko‘rsatmasa, ziyorat turizmida barqaror natijaga erishish qiyin bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ziyorat turizmini rivojlantirishda tizimli yondashuvning birinchi va eng muhim xususiyati – uning kompleks xarakteridir. Bu shuni anglatadiki, faqat muqaddas joylarning mavjudligi ziyorat turizmini to‘liq rivojlantirib bermaydi. Masalan, Makka, Madina yoki Samarqand kabi joylardagi diniy-madaniy merosning o‘zi kifoya emas, balki ularni ziyorat qilish uchun qulay transport, zamonaviy mehmonxona xizmatlari, axborot texnologiyalari, gidlar va xizmat ko‘rsatish tizimi ham zarur. Shuning uchun tizimli yondashuv ziyorat turizmining barcha tarkibiy qismlari uyg‘un va mutanosib holda rivojlanishini talab qiladi.

Ikkinchi xususiyat – ijtimoiy-iqtisodiy integratsiyadir. Ziyorat turizmi diniy ehtiyojlarni qondirish bilan birga mahalliy iqtisodiyotga ham kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Muqaddas joylar atrofida mehmonxonalar, restoranlar, transport xizmatlari, savdo do‘konlari va hunarmandchilik faoliyati rivojlanadi. Natijada, mahalliy aholi uchun ish o‘rinlari yaratiladi, hududga investisiyalar kirib keladi va davlat byudjetiga soliq tushumlari oshadi. Shuning uchun tizimli yondashuvda ziyorat turizmining rivojlanishi faqat turistlar ehtiyojini qondirish emas, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari bilan ham uyg‘unlashishi kerak.

Uchinchi xususiyat – madaniy va ma’naviy uyg‘unlik. Ziyorat turizmining iqtisodiy samaradorligi bilan bir qatorda, uning ma’naviy va madaniy ahamiyati ham katta. Ziyoratchilar muqaddas joylarga tashrif buyurib, ma’naviy orom oladi, ruhiy qoniqishga erishadi va diniy hamda milliy qadriyatlar bilan tanishadi. Bu jarayon madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilishni, ularni ta’mirlash va saqlab qolishni talab qiladi. Masalan, Samarqanddagi Imom al-Buxoriy majmuasi, Buxorodagi Bahovuddin Naqshband ziyoratgohlari nafaqat turistik nuqtai nazardan, balki milliy va ma’naviy meros sifatida ham katta ahamiyatga ega. Shuning uchun tizimli yondashuvda madaniy va ma’naviy qadriyatlarni muhofaza qilish asosiy tamoyil sifatida belgilanishi lozim.

To‘rtinchi xususiyat – innovasion yondashuv. Zamonaviy global turizm raqamli texnologiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu, ayniqsa, ziyorat turizmi uchun ham dolzarbdir. Masalan, ziyoratchilar uchun mobil ilovalar orqali onlayn yo‘nalishlar, 3D ekskursiyalar, elektron gid xizmatlari yo‘lga qo‘yilishi ularning

safarini ancha yengillashtiradi. Pandemiya davrida virtual ziyorat platformalari yaratilgani bu sohada innovasiyalar qanchalik muhim ekanini ko’rsatdi. Shuning uchun tizimli yondashuvda innovasiya va raqamli texnologiyalardan foydalanish ham ustuvor yo’nalish bo’lib qolishi zarur.

Beshinchi xususiyat – barqarorlik tamoyili. Ziyoratchilar oqimining ortib borishi tabiiy muhit va tarixiy obyektlarga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin. Masalan, ziyoratchilarning ko’pligi tufayli tarixiy yodgorliklar tezroq yemiriladi, tabiiy muhit ifloslanadi. Shuning uchun tizimli yondashuv ziyorat turizmini barqaror rivojlantirishni talab qiladi. Buning uchun ekologik me’yorlarga rioya qilish, ziyoratchilar oqimini samarali boshqarish va madaniy merosni asrab-avaylash zarur.

Oltinchi xususiyat – mahalliy hamjamiyat ishtirokini ta’minlash. Ziyorat turizmi mahalliy aholi manfaatlariga xizmat qilishi kerak. Agar mahalliy aholi turizmdan foyda ko’rmasa, ularda manfaatdorlik pasayadi va turizmga salbiy munosabat shakllanadi. Shuning uchun tizimli yondashuvda mahalliy aholini turizm jarayonlariga jalb qilish, ularning xizmat ko’rsatishda ishtirokini ta’minlash va turizmdan oladigan daromadini oshirish muhimdir. Bu esa jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va totuvlikka ham xizmat qiladi.

Yettinchi xususiyat – institusional boshqaruv. Ziyorat turizmining samarali rivojlanishi davlat idoralari, diniy tashkilotlar, xususiy sektor va mahalliy hamjamiyatning o‘zaro hamkorligiga bog‘liq. Shu bois tizimli yondashuvda barcha manfaatdor tomonlar o‘rtasida muvofiqlashtirilgan siyosat va boshqaruv mexanizmlari joriy etilishi kerak. Bu orqali ziyorat turizmining uzoq muddatli va barqaror rivojlanishi ta’minlanadi.

Tizimli yondashuvning tamoyillari ham ushbu jarayonda muhim ahamiyatga ega. Birinchisi – yaxlitlik tamoyili, ya’ni ziyorat turizmining barcha elementlari bir butun tizim sifatida uyg‘un holda faoliyat yuritishi lozim. Ikkinchisi – integratsiya tamoyili, ya’ni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik jihatlarni uyg‘unlashtirishdir. Uchinchisi – ilmiy asoslanganlik tamoyili, ya’ni rivojlantirish strategiyalari ilmiy tadqiqotlarga va statistik tahlillarga asoslanishi lozim. To‘rtinchisi – innovasiya tamoyili, bu zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanishni nazarda tutadi. Beshinchisi – barqarorlik tamoyili, ziyorat turizmini uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirishni va madaniy merosni muhofaza qilishni talab qiladi. Oltinchisi – ijtimoiy mas’uliyat tamoyili, ya’ni mahalliy aholi manfaatlarini ta’minlash va ularni turizm jarayonlariga jalb etishdir. Yettinchisi – xalqaro hamkorlik tamoyili, ya’ni dunyo tajribalaridan foydalanish va qo‘shma loyihalar orqali ziyorat turizmining nufuzini oshirish.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ziyorat turizmining rivojlanishida tizimli yondashuv uning barqaror va samarali ishlashini ta’minlaydi. Bu yondashuv turizmning iqtisodiy samarasini oshirish bilan birga, ma’naviy qadriyatlarni muhofaza qilish, mahalliy aholi manfaatlarini ta’minlash, zamonaviy innovasiyalardan foydalanish va barqaror rivojlanishni yo‘lga qo‘yish imkoniyatini yaratadi. Tizimli yondashuv asosida tashkil etilgan ziyorat turizmi nafaqat diniy ehtiyojlarni qondirishga, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ham katta hissa qo‘shishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston-2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni. // <https://lex.uz/docs/-6600413>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin ko‘paytirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 12.01.2024 yildagi PF-9-sonli farmoni. // <https://lex.uz/uz/docs/-6759637>
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy statistik ma'lumotlari, 2024. // <https://stat.uz>
4. Кульман А. Экономические механизмы / Пер. с фр. А. Кульман; Под ред. Н.И. Хрустальной. М.: Прогресс- Универс, 1993.189 с.
5. O'Connor, K., Flanagan, S., Gilbert, D. “Religious Tourism and Pilgrimage”, *Annals of Tourism Research*, 2017, Vol. 64, pp. 36–49.
6. UNWTO. (2024). World Tourism Barometer. Vol. 22, Issue 1. World Tourism Organization. <https://doi.org/10.18111/wtobarometereng>
7. <https://datasaudi.sa/en/sector/hajj?utm>
8. <https://www.futuremarketinsights.com/reports/faith-based-tourism-sector-overview>